



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMINI QAYTA QURISHNING ZARURLIGI

Ravshanov Xurshid Akromovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti Moliya va bank ishi kafedrası o'qituvchisi

tell:+998 997155015

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.10213181>

ARTICLE INFO

Received: 19th November 2023

Accepted: 27th November 2023

Online: 28th November 2023

KEY WORDS

Soliq, soliq organi, soliq tizimi, biznes faoliyati, Soliq idorasi, biznes huquqi, konstitutsiya moddalari, davlat organi, davlat tashkilotlari.

ABSTRACT

Mamlakatimizda davlat organlari va tashkilotlariga yuridik xizmat ko'rsatishning samarali usullari hamda ijtimoiy salohiyatiga o'zgartirishlar va shuningdek, Soliq timida bir qancha o'zgartirishlar kuzatilmoqda. Bu maqolada soliq organlarida yuzaga keladigan muammo va kamchiliklar yoritilgan.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasining 1991-yil 15-fevralda qabul qilingan «Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlarning soliqlari to'g'risida» Qonuniga binoan 1992-yildan boshlab yangi soliq tizimi joriy etildi. Bu tizimi 1991 -yildagiga qaraganda tubdan yangi tizim bo'ldi. Respublikamizda birinchi marta egri soliqlar kiritildi. 1992-yilgacha korxonalar va tashkilotlarning asosiy solig'i bo'lmish ish oborot solig'i o'rniga qo'shilgan qiymat solig'i, foydadan ajratma to'lovi o'rniga yalpi daromad daromad solig'i va yangidan Respublikadan tashqariga chiqarib sotiladigan tovarlarga soliq, cheklangan tovarlarga aksiz solig'i va mol-mulk soliqlari joriy etildi. O'zbekiston soliq tizimini o'zgartirishning zaruriyati quyidagilardan kelib chiqqan edi.

Birinchiidan. Bozor iqtisodiyotining obyektiv qonunlaridan. Bozor iqtisodiyoti erkin va huquqiy munosabatlari, har kim tom onidan qonunsiz aralashishini yoqtirmaydigan munosabatlarini talab etadi. Ilgari iqtisodiyotni buyruq-ma'muriyatchilik asosida boshqarishda davlat o'zining va boshqa mulk shaklidagi korxonalar va tashkilotlarning daromadlari istagancha qayta taqsimlanadi. Budget daromadlari xilma-xil to'lovlar va ajratmalardan tashkil topadi. Ularning stavkalarini davlat xohlaganicha o'zgartiradi va markazlashgan fondga olib qo'yadi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat bilan turli mulk shaklidagi korxonalar, birlashmalar va tashkilotlar, aholi o'rtasidagi munosabatlar faqat qonuniy, huquqiy demokratik asosga o'tadi. Bu munosabatlar qonun chiqaruvchi organ tasdiqlab bergan soliqlar orqali amalga oshiriladi.

Ikkinchiidan. Ilgari buyruqbozlik, iqtisodiyotni markazlashgan boshqarish davrida o'rnatilgan soliqlar bozor iqtisodiyotini boshqarish davriga mos kelmay qoladi. Bu davrda korxonalar va tashkilotlarga keng moliyaviy erkinliklar, ya'ni o'z moliyaviy manbalarini o'zlari taqsimlashi, o'z ishchi va xizmatchilariga ish haqini o'zlari belgilashi, bahoni o'zlari aniqlashi



budjetga har xil to'lovlar emas, balki qonuniy, qat'iy soliqlar bo'lishligini talab etadi. Ish haqi xarajatlarining oshib ketishi natijasida foydadan ajratm aning tushm ay qolishi yalpi darom addan soliqqa o'tishga zaruriyat yaratadi. Oborot solig'i esa asosan davlat belgilaydigan baholar farqi sifatida ifodalanar edi. Korxonalar va tashkilotlarga o'z tovar va xizmatlariga baholami o'zlari belgilash huquqi berilganligi davlat qo'lidan bu huquqni olib qo'ydi. Endi baholar farqi bo'yicha oborot olish imkoniyati yo'qoldi. Shuning uchun bu soliqni ham tubdan o'zgartirib qo'shilgan qiymat solig'iga o'tildi.

Uchinchi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davri og'ir bo'lar ekan, bu davrda ishlab chiqarish darajasi pasayishi, ishsizlar sonining ortib ketishi, moliyaviy tanqislik, pul inflatsiyasi, baholar ing keskin oshib ketishi yuz berib, budjet xarajatlarini tez ko'payib ketishiga ham olib keldi. Ularni qoplash uchun esa salmoqli darom adlar bo'lishi talab etildi. Daromadlarni faqat to'g'ri soliqlar orqali budjetga jalb qilish yetarli bo'lmay qoldi. Shuning uchun to'g'ri soliqlardan tashqari egri soliqni qo'llash zarur bo'ldi.

To'rtinchi. O'z mustaqilligini e'lon qilgan O'zbekiston Respublikasi o'zining yangi soliq tizimiga ega bo'lishi va ilgari Markaz belgilagan soliqlardan voz kechishi kerak edi. Bu ma'naviy jihatdan ham zarur bo'lgan edi. Yuqoridagilarning jami yig'ilib O'zbekiston Respublikasi soliq tizimini qayta qurishni obyektiv zarur qilib qo'ygan edi. Soliq tizimini tashkil etuvchi soliq tizimi respublikamiz ijtimoiy-iqtisodiy hayotidagi harakatiga qarab turli guruhlarga bo'lish mumkin. Yuqorida qayd etilganidek, iqtisodiy mohiyatiga qarab soliq tizimi to'g'ri va egri soliq tizimiga bo'lish mumkin. To'g'ri soliq tizimi to'g'ridan to'g'ri haqiqiy darom ad oluvchi yoki mulk egasidan olinadi. Ularning obyekt yalpi daromad, mulk qiymati, yer maydoni, ot kuchi va boshqalar bo'ladi. Bunday soliq tizimida huquqiy va haqiqiy soliq to'lovchi ilgari aniq va bitta. Soliqni soliq to'lovchining o'zi to'laydi. Bu soliq tizimining manbai korxonaning xo'jalik - moliya faoliyati yakuni, ya'ni daromad addir. O'zbekistonning to'g'ri soliq tizimiga korxonalar va tashkilotlarning daromadidan soliq, mol-mulk solig'i, transport vositalari egalari solig'i, yer solig'i, aholining daromad solig'i va boshqalar kiradi. Egri soliq tizimiga sotilayotgan tovar, bajarilayotgan ish, ko'rsatilayotgan xizmatlar qiymatiga ustama tarzda undiriladi. Ular tovar qiymati yoki xizmat ta'rif summasini oshiradi. Ularni shunday qaraganda mahsulot sotuvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi to'layotganday bo'ladi. Huquqiy jihatdan ularni mahsulot sotuvchilar to'laydi, (lekin haqiqiy soliq og'irligini o'z zimmasiga oluvchilar boshqa, yashiringan). Egri soliq tizimining haqiqiy to'lovchisi sotilgan tovar va ko'rsatilgan xizmatni iste'mol qiluvchi korxonalar va oqibat natijada aholi. Egri soliq tizimiga guruhiga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i va bojxona bojlari kiradi. Soliq tizimining huquqiy va jismoniy shaxslardan ya'ni korxonalar va aholidan olinadigan soliq tizimiga bo'linadi. Huquqiy shaxslardan undiriladigan soliq tizimida daromad adida hal qiluvchi o'rinni egallaydi. Bularga qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, daromad solig'i, korxonalar mol-mulki solig'i, korxonalar transport vositalari egalari solig'i, yer solig'i, dam olish joylarida, sanoat qurilishi solig'i kiradi.

Soliq stavkalarining turlari va soliq deklaratsiyasi

Soliq solish tizimida muhim o'rinni soliqqa tortiladigan va tortilmaydigan daromad adlar tashkil qiladi. Soliqqa tortiladigan daromad ad bu huquqiy va jismoniy shaxslar yalpi daromad adining soliqqa tortiladigan qismidir. To'g'ri soliq tizimida soliqqa tortiladigan daromad adni aniqlayotganda yalpi daromad addan imtiyozlarni va soliqqa tortilmaydigan daromadlarni



chegirib tashlanadi. Masalan, bizning respublikamizda fuqarolar yalpi darom adidan ham ma turdagi pensiya nafaqa, zayom va lotereyadan yutuqlar om onat kassalaridagi omonatlardan foiz daromadlari, sug'urta qoplamalari, o'z mulklarini sotishdan olgan daromadlarni chiqarib tashlab, soliqqa tortiladigan darom ad aniqlanadi. Soliqlami hisoblashda soliq stavkasi katta o'rin egallaydi. Soliq stavkalari quyidagi turlarga bo'inadi: proporsional, progressiv va regressiv stavkalar. Proporsional stavka - soliq solish obyektiga yagona foizlarda belgilanadi. Masalan, m ol-m ulk solig'ida asosiy fondlar qiymatiga yagona bir xil foiz soliq stavkasi qo'yilgan.

Progressiv stavka - obyekt qiymati yoki darom ad o'sishi bilan stavka o 'sib boradi. Masalan, fuqarolam ing ish haqidam olinadigan darom ad solig'ida 2007-yil 1-yanvardan boshlab darom ad summ asining eng kam ish haqining 4 baravarcha qismi 13 % soliqqa tortilib, darom ad ortib borishi bilan soliq stavkasi ham 25 %gacha ko'payib boradi. Regressiv stavkalarda darom ad qancha orta borsa, soliq ham kamayib boradi. Bu progressiv stavkaning teskarisi. Soliq deklaratsiyasi soliq to'lovchilar tom onidan yozib topshiriladigan ariza - m a'lum otnom adir. Bu hujjatda soliq to'lovchilar o'tgan davrda (chorak, yarim yil yoki yilda) o'zlari ishlab topgan ham m a darom adlam i ko'rsatadilar, shu darom adlam i olish uchun sarflagan xarajatlar ham ko'rsatiladi. Bu soliqni hisoblash uchun hujjatdir. Soliq deklaratsiyasiga binoan soliq idoralari soliq to'lovchilam ing darom adi xarajati sof darom addan (ya'ni soliqqa tortiladigan darom adini) belgilab, soliq stavkasini qo'llab, soliq summasini hisoblab beradilar. Qanday xarajatlami yalpi darom addan chegirib tashlash lozimligini O 'zbekiston Respublikasi soliq Qonunchiligi asosida Davlat soliq qo'm itasi va Moliya vazirligi belgilab beradilar. Respublikamiz soliq qonunchiligiga binoan soliq deklaratsiyasida asosiy ish joyidan olgan ish haqi, mukofot, moddiy yordam va boshqa daromadlar, o'rindoshlikdan olingan daromadlar va boshqa hamma daromadlar ko'rsatilishi shart bo'ladi. To'lovchilar soliq deklaratsiyasini o 'z vaqtida taqdim qilm asalar soliq idoralari o'tgan davrdagi to'langan summani 150 % qilib to'lashni talab qiladilar va to'langan summadan 10%ni ushlab qoladilar.

Xulosa va natijalar

Mahalliy soliqlar faqat har bir hududdagi mahalliy hokimliklar budjetiga tushadi, boshqa byudjetlarga ajratmalar berish bo'lmaydi. Bunday soliqlarga yer solig'i, jismoniy shaxslaming mol-mulk solig'i, dam olish joylarida sanoat qurilishi solig'i, transport vositalari soliqlari kiradi. Bulardan tashqari mahalliy soliqlar va turli yig'im lar kiradi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida xilma-xil faoliyat va mulk shakllaridagi korxonam va tashkilotlami umumdavlat chora tadbirlarini moliyalashtirishda qatnashishlari ijtimoiy, iqtisodiy zaruriyatdir. Hozirgi moliyaviy tanqislikni asosan byudjet tanqisligini e 'tiborga olib soliqlam ing yangi turlari ham kiritilshi mumkin. Chunki bozor iqtisodiyotining infrastrukturasi xizmat qiladigan xilma-xil soliqlar bolishi zarur. Soliq davlat yashashining moliyaviy manbayi bo'lganligidan soliq siyosatini ishlab chiqishning asosiy tashkilotchisi va ijodkori ham davlatdir. Buning uchun davlat o 'z qo'lidagi butun kuchni, idoralarni jalb qilib uni ishlab chiqadi. Bunday tashkilotlarga Davlat soliq qo'm itasi, Moliya vazirligi va boshqa ilmiy uslubiy tashkilotlar kiradi. Davlat soliq siyosatini ishlab chiqayotganda mavjud soliqlar mohiyati, ahamiyati, kelib chiqish va rivojlanish tarixi chuqur o'rganiladi. Yangi kiritilayotgan soliqlarning ilmiy asoslanganligi tekshiriladi. Amaliyotchi yirik mutaxassislar fikrini eshitib, erkin bahslashuvlar



o'tkazib, so'ng bir qarorga kelishi zarur. Hech qachon faqat biron soha mutaxassislari taklifini tezda olib, ularga qarab qaror qilishi to'g'ri bo'lm aydi. Chunki har sohaning vakili o'z sohasining vazifalaridan kelib chiqib taklif qilishi mumkin. Umumdavlat manfaatlarini to'liq ilgaridan ko'ra olmasligi mumkin. Ma'lum qarorga kelingandan so'ng soliq siyosati loyihasi qaror chiqaruvchi oid tasdig'iga berilsa maqsadga muvofiq, bozor iqtisodiyoti mohiyatiga mos keladi. Tasdiqlangan soliq siyosatining keng jam oatchilikka ommaviy axborotlar orqali ma'lum qilish zarur. Shunday siyosatning ijrosini ham strategik jihatdan, ham taktik jihatdan ta'minlashni yana daviat tashkil qiladi. Buning uchun o'zining tegishli idoralari ishga soladi. Demak, daviat soliq siyosatini tayyorlovchi va uni to'liq hayotga tadbiq qilishning tashkilotchisi va boshqaruvchisi hisoblanadi deb o'ylayman.

References:

1. Karimov I.A. «O'zbekiston iqtisodiy islohotlami chuqurlashtirish yo'lida», «O'zbekiston» 1995-y.
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent. «O'zbekiston» 1992-yil.
3. O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. «O'zbekiston» 2004-yil.
4. O'zbekiston Respublikasining Bojxona Kodeksi. «Xalq so'zi» gazetasi. 1998-yil. 3-yanvar.
5. O'zbekiston Respublikasining «Budjet tizimi to'g'risida» gi Qonuni. «Xalq so'zi» gazetasi. 2000. 14 yanvar.
6. O'zbekiston Respublikasi moliyaviy qonunlari. Yanvar, 1994. «Korxonalar to'g'risida»gi Qonun. 1995-y. «Moliyaviy qonunlar». 1995-yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «davlat byudjetiga soliqlar va boshqa to'lovlar bo'yicha imtiyozlar berishni tartibga solish to'g'risida»gi 1999-yil 26-iyun Farmoni. T.; 2000. Adolat.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998-yil 9-apreldagi «Xususiy tadbirkorlik, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 1987-sonli Farmoni.
9. Karimov I.A. O'zbekiston-bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li.T., O'zbekiston, 1993.-108-b. 10. Karimov I.A. O'zbekiston iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlari T., O'zbekiston, 1993 -53-b.